asıraw boyınsha konvenciya qabılladı. Áne sol konvenciyaǵa muwapıq basqa mádeniy baylıqlar qatarı kitapxana fondları da olardı joǵaltıp jiberiw yamasa qandayda bir formada nızamsız ózlestiriw qáwipi tuwılǵan jaǵdaylarda xalıqaralıq qorǵawǵa alınadı. Fondlardıń tolıqlıǵına olardı asıraw, tuwrı saqlaw hám de zaqım alıw faktorların jónge salıw arqalı erisiledi.

Fondtı asıraw degende, kitapxana fondları profilaktikası hám de onıń tolıqlıǵınıń qáwipsizligine tiyisli ilajlar kompleksi túsiniledi. Usı tarawda tómendegishe túsinik bar.

Tuwrı saqlaw – bul fondtı qolaylı fizikalıq-ximiyalıq sharayatlar hám biologiyalıq rejimde arnawlı úskenelestirilgen imaratta asıraw bolıp esaplanadı. 1962-jılı barlıq kitapxanalar ushın májbúriy bolǵan "Kitap fondlarınıń saqlanıwı haqqında jollama» qabıllandı.

Yaǵnıy, saqlaw óz gezeginde tuwrı jolǵa qoyılıwı shárt. Endi biz hújjetlerdi saqlawda kóbirek zamanagóy informacion-kommunikaciya texnologiyalarınan paydalanıw kerekligi haqqındaǵı ideyanı alǵa súremiz. Sebebi, hújjetlerdi jıynaw, saqlaw, remontlaw, zálel jetkizbewden saqlaw házirgi kúnde aktual máselelerden biri. Ásirese, túp hújjetlerden nusqa kóshiriw, olardan paydalanıw hám qorǵawdıń nátiyjeli sisteması ámeliyatqa engiziw procesinde qánigelerdiń jetispew-shiligine gúwa bolamız. Mısalı, hújjetlerdi saqlawshı arxiv mákemelerinde úskeneler hám basqa zárúr materiallarǵa bolǵan mútajlikler menen birge qánigeler de kem. Juwmaqlap sonı atap ótiw kerek, hújjetlerdi saqlawda birinshi náwbette zárúr múmkinshilikler menen birge kadrlar máselesin da kórip shıǵıwımız kerek. Bul tarawdıń kitapxana iskerliginde úyreniledi. Kitapxana iskerliginde oqıp atırǵan studentlerdiń arnawlı grantlar yamasa sheriklikler arqalı mamanlıǵın asırıw, ásirese rawajlanǵan mámleketlerde tarawdıń tájiriybesin úyrenip, ámeliyatqa nátiyjeni ámelde qollaw kúnniń eń aktual hám áhmiyetke iye máselerinen biri bolıp tabıladı.

**Ádebiyatlar**

1. Rahimov M., Shamsiev Sh. Hujjatshunoslik. A.Qodiriy nomidagi ToshDMI bosmaxonasi. – T.:2008. – 156 b.
2. А. И. Земсков, Я. Л. Шрайберг. Электронные библиотеки. – Москва : Либерия, 2003. – 351 с.
3. Saburov N. Arxiv ishi: me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ma'lumotlar to'plami. – T.: O'zR MDA, 2017. – 160 b.
Э. Йўлдошев., М. Раҳимова., «Ҳужжат фондлари». Тошкент – 2.14. 150

**REZYUME.** Bul maqalada hújjet túsinigi haqqında kásibiy iskerlik tárepinen hár tárepleme túsinikler berilgen. Hújjetlerdi saqlawdıń áhmiyeti haqqında pikir júritilgen.

**РЕЗЮМЕ.** Эта статья дает всестороннее понимание концепции документа с точки зрения профессиональной деятельности. Обсуждалась важность хранения документов.

**SUMMARY.** This article provides a comprehensive understanding of the concept of document in terms of professional activities. The importance of document storage was discussed.

## MADANIYAT MARKAZLARINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY USLUBLARDAN FOYDALANISH

**Orazbaeva Dilnaz Dawletbay qızı** - *magistr*
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so'zlar:** madaniyat markazlari, madaniyat sohasini boshqaruv, rahbar, motivaciya, reja, zamonaviy uslub, milliy madaniyat, faoliyat, xodim.

**Ключевые слова:** кулътурние центр, управление сферой культуры, лидер, мотиватор, план, современный слилъ, активность, сотрудник.

**Key words:** cultural centrs, cultural management, leader, motivation, plan, modern style, activity, employee.

Songi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar, milliy madaniyatnı yanada rivojlantirish, Yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish moddiy va nomoddiy madaniy meroslarimizni asrab-abaylash va yoshlar qalbida milliy madaniyatimizga bo'lgan hurmatini yanada oshirish, xalıq orasida targ'ib qilish borasida ko'plab ishlar olib borilmoqta. Xususan madaniyat sohasiga katta itibor berilib, bu sohaning rivojlanishiga yo'l oshib beryapti va shuning bilan birga sohaning boshqarish tizimiga katta masulyat ham yuklanmoqta desam xato

emas. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va tásirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-maydagi PF 6000-son farmonida madaniyat mazrkazlari faoliyatini, jumladan, madaniyat markazlari uchun yangi bino qurish, rekanstrukciya qilish, mukammal tamirlash va jihozlash ishlarini tashkil etish belgilandi. [1.LexUz.PF6000-son.]

Respublikamizda 1537 ta madaniyat muassasasi, 826 ta madaniyat markazi, shulardan 60 ta madaniyat markazi Qaraqolpog‘iston Respublikasida, 274 ta madaniyat va istirohat bog‘lari, 312 ta bolalar musiqa va sanat maktablari, 39 ta teatr, 105 ta muzey mavjud. Madaniyat markazlarida 549 ta “Xalq” va “Namunali” unvonlariga ega badiiy havoskorlik jamoalari faoliyat olib bormoqda. Aholi ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuxorolarga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yaxshilash, Respublikamizda turizmni rivojlantirish maqsadida Prezidentimizning PQ 406-sonli “Aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari tog‘risida” gi qarori hozirgi kunda madaniyat markzalaridagi ish faoliyatini yanada rivojlantirish, xalqimizga madaniy dam olishni tashkil qilish samarali ish olib borishda yál xaritasi bólib xizmat qilmoqda. Unda

– Madaniyat vazirligi tamonidan “Madaniyat karvoni” shaklida hududlarda koncert-tomosha tadbirlarini ótkazish,

1. Badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnik mazasini mustahkamlash,
2. 2024-yil 1-apreldan boshlab “Madaniyat to‘lqinlari” media loyhasini amalha oshirish,
3. Turizm obyekti hisoblangan “Orol kemalari”nda madaniy tadbirlar o‘tkazish,
4. Nukus shahrida “Ko‘cha san’ati va musiqasi” dasturini amalga oshirish.
5. “Yangi O‘zbekiston yulduzlari” “Yoshlik bahori” “M.Turg‘unboeva nomidagi milliy raqs ijrochilari” va boshqa tanlovlar o‘tkazilishi rejalashtirildi. [2.LexUz.PQ.406-son]

Mamlakatimizda samarali faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarining ishlarini natijador va ko‘lamli tashkil etish, ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va mustahkamlash, kadrlarni tatayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish hamda madaniy-marifiy ishlar samaradorligini oshirishdagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish borasidagi tashkiliy-huquqiy meyoriy hujjat sifatida 2019-yil 30-mart kuni “Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash tog‘risida” gi Vazirlar Mahkamasining 264-son Qarori asosiy dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Nizom aholiga xizmat ko‘rsatish darajasini yanada yaxshilash, ularning bo‘sh vaqitlarini mazmunli o‘tkazish, urf-odat va milliy ananalarimizni o‘zida mujassam etgen dasturlarni shakilantirish saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish va ularning faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadlarini o‘z mazmun-mohiyatida aks ettiradi.

Madaniyat markazlari – O‘zbekistonda yashovchi xaliqlarning milliy madaniy ehtiyoj-larini qondirishga, havaskorlikni oshirishga, istedotlarni yuzaga chiqarishga, dam olishni tashkil qishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlaridir. Madaniyat markazlari O‘zbekiston Respublikasi Konistituciyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlariga va boshqa qonun hujjatlarga, Madaniyat vazirligi qonunlariga hamda óz nizomiga asoslangan holda faoliyat kórsatadi. Bunday madaniyat karkazlari asosan xalqimizning qadimiy urf-odatlarini saqlab qolishga, aholining bosh vaqtini mazmunli taminlashga katta hissa q o‘shyapti.

Boshqa sohalarda bólgani kabi madaniyat va san’at sohasi boshqaruvida ham mamlakatimizda olib borilayotgan katta-katta islohotlar jarayonida o‘zgartirishlar kiritilib, ayrim tuzilmalar qayta tashkil etilib, yangilanib va takomillashtirilib borilmoqta. Ularning bir misoli sifatida hozirgi kunda respublikamizdagi faoliyat kórsatayotgan madaniyat markazlariga yangisha nom berilishini madaniyat sohasidagi rivojlanishning bir bo‘lagi desak o‘rinlidir. Sababi ozmi ko‘pmi bu o‘zgarish bu sohada xizmat ko‘rsatayotgan hodimlar uchun katta motivaciya bo‘ladi. Madaniyat markazlari turli yo‘nalishlar va san’atning barcha janrlari bo‘yicha tuzilgan havaskorlik to‘garaklari, madaniy-ijodiy, marifiy va dam olish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishni ta’minlaydigan davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi. Bunday muassasani boshqarish esa insondan katta masuliyat talab qiladi. Markazni boshqarishta menejer buguni va kelajagini o‘ylab ish qilishi kerak bóladi. Boshqarish paytida menejerdan talab qilinadigan asosiy belgilar quyidagilardan iboratdir.

-zamonaviy uslubda fikirlash,
-muamoni tez hal qilishni belgilash,
-samiymiy muloqatda bólish,

Muamoni aniqlash va uni to‘g‘ri shakillantirish menejerdan katta mahorat talab qiladi. U barcha muamolarni bir qatorda hal qilishni reja-

lashtirmasdan ularning ichidan eng muhim va ahamiyatlilarini ajratib olishlari kerak. [4. 117-b] Menejer qaysi bir sohani boshqarmasin ularning har birini boshqarishda avvalo reja tuzishi va shu reja asosida ish qilishi kerak boʻladi. Reja – bu boshqaruv jarayonining boshlanishi va eng katta qisqmi hisoblanadi. Agarda menejer oldinda ishlanishi kerak boʻlgan ishlarini reja asosida ishlab shiqmasa, reja tuzmasa bunday tashkilot hech qachon rivojlanmaydi, bunday tashkilot xalqqa xizmat koʻrsata olmaydi. Shunday ekan tashkilotning qanday ish olib borishi, rivojlanishi, hamma hammasi, menejerga bogʻliq boʻladi. Rejalashtirish boshqaruv jarayonining birinchi, gʻoyatda muhim vazifasi boʻladi. Agar rejaviy koʻrsatkichlar yetarlicha asoslanmagan boʻlsa, tashkilot kiyingi bosqichlarda qanchalik yaxshi ishlamasin, natija past boʻladi. Shuning uchun boshqaruvning sifati rejalashtirishning toʻǵri shakllantirilganligiga bogʻliq boʻladi.

-menejerlar tashkilot haqiqatdan ham nimalarga erishishi mumkinligini aniqlash uchun, tashkilotning uning asosiy sohalaridagi (moliya, xodimlar, marketing) kuchli va zayif tamonlarini baholashlari kerak.

-menejerlar tashkilotning atrof-muhitidagi imkoniyatlar va xavflarini baholab turib, tashkilotning maqsadlari qanday boʻlishi kerakligini va ulargga erishishga nimalar halaqt berishi mumkinligini belgilashi kerak.

- menejer doyimiy ravshda hodimlarni, ular buni his qiladilarmi yoki yoʻqmi faoliyatga undaydi. Qadimgi vaqtlarda faoliyatga undash uchun qamchi va qoʻrqitish usullaridan foydalangan. Hozirgi kunda esa faol ishlagan xodimlarga mukofatlar berishadi, qoʻshimcha mablagʻlar berishadi va ularni yaqshi ishlashga yanada oʻz ustida rivojlanishga undaydi. Shunday qilib menejer tashkilotning samarali ishlarni amalga oshishini, rivojlanishini, va ósishini taʻminlaydi.

-menejer boshqaruv paytida tashkilotda oʻzgarishlarni hal qilib turishi kerak. Albatta bunday oʻzgarishlar hodimlarga ham maqul kelishi va bu ózgarishlardan, yangilanishlardan motivaciya olib oʻz ishini yanada natijaliroq, yaxshiroq qilib ishlashga undashi kerak.

Madaniyat markazining asosiy vazifasi – bu san’at sohasiga qiziquvchanlikni oshirishdan iborat. Markazda san’at turlari bóyicha havaskorlar oʻz talant va ishtiyoqlarini oshiradi, bilim oladi. Havaskorlarni yoshi esa chegaralanmagan. Madaniyat markazlari aholiga xizmat kórsatish darajasini yaxshilash, ularning madaniy muhtojliklarini qanoatlantirish va boʻsh vaqtini samarali oʻtkazishini taminlash, badiiy jamoalarning milliy qadryatlarni, urf-odat va an’analarini oʻzida mujassam etkan namunali ijrolarni yaratish.

Madaniyat markazlari xususan direktor tamonidan boshqariladi. Madaniyat markazi direktori – markaz binosi, markaz hodimlari mexnatini toʻgʻri tashkil qilish, vazifalarni samarali tahsimlash, jamoada tarbiyaviy ishlarning keng yoʻlga qoʻyilishi va sogʻlom manaviy muhitni barpo etish: markazni yuksak namunali faoliyat orqali davlat, jamoat tashkilotlari va muassasalarga tanitish, mehnat qonunchiligiga asosan hodimlarni lovozimlarga tayinlash, lovozimdan ozod etish, shuningdek, alohida holatlarda ularga nisbatan choralar koʻrish va ragʻbatlantirish; markaz faoliyatini yaxshilash borasida tegishli tashkilotlarga taklif va tavsiyalar kiritish; markazning moliyaviy va xoʻjalik faoliyatini amalga oshirish, tegishli tartibda oʻz faoliyati yuzasidan shartnomalar tuzish ishlariga rahbarlik qilish, markaz ishini rejalashtirish, hisobni yuritish, hujjatlarni toʻplash, aholiga pulli xizmat kórsatish rejasini oʻz vaqtida va toʻgʻri yoʻnalish asosida amalga oshirish huquqiga ega.

Rahbar oʻz faoliyati davomida madaniyat va san’at sohasidagi amaliy jarayonlarni, tarixiy, yozma manbalarni chuqur oʻrganishi, soha vazifalari, yoʻnalishlari, asoslarini, qiyosiy tahlillarni yaxshi bilishi kerak. Rahbardagi yuksak aqil-zakovot, keng dunyo qarash, zamonaviy malumotlardan xabardor boʻlish, madaniyat va san’at sohasidagi barcha yutuqlarini amaliyotga joriy etish, yangi ovozlar, yangi istedotlarni izlab topish u olib borayotgan faoliyatga asos boʻlib xizmat qiladi.

Zotan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev takidlab oʻtgani kabi “Hech shubhasiz, oʻz kuchimiz va imkoniyatlarimizga boʻlgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yoʻlida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tabora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda boʻlishning oʻzi katta baxt, katta sharafdir”. [5.69-b]

## Adabiyotlar


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va sanat sohasining jamiyat hayotidagi órni va tásirini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻǵrisida” 2020-yil 26-maydagi PF 6000-son.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 406-sonli “Aholiga madaniy xizmat koʻrsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori 25.12.2023-y
3. S. Tóychiyeva. “Madaniyat va san’at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish” Toshkent 2020.

4. A. Haydarov. "Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari" Toshkent 2016. 117-bet
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. 2020-y 24-yanvar. Toshkent. Tasvir. 2020-y 69-b
6. D. Orazbaeva. "Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilishda innavacion menejmentning tutgan órni va ahamiyati" maqolasi "ZAMONAVIY ILIM-FAN VA TALIM ISTIQBOLLARI" ilmiy-amaliy konferenciyasidan. Volume 2. Toshkent 2023. December. 168-173.
7. G.A.Saparbaeva. Madaniy dam olishni tashkil etishning asosiy omillari. eurasian jurnal of social scinces philosophy and culture. Volume 3 lessue 10,october 2023. 68-71.
8. Qaraqalpoǵiston Respublikasi Vazirlar Kengashining qarori. Nukus 2023-y 20-oktabr.
9. G.Saparbaeva, J.Reymov "Madaniyat sohasida innavacion rivojlanish" maqolasi "San'at va madaniyat axborotnomasi" jurnali 83-84 b. №1 son 2024-y

**REZYUME.** Bu maqolada madaniyat va san'at sohasidagi boshqaruv uslublari, so'nggi yillarda bu sohadagi olib borilayotgan ishlar, ózgarishlar haqida sóz boradi. Shuningdek, rahbarning ózini ish paytida qanday tutishlari, ish olib borish tarzi, tashkilotdagi ishchilarni qanday qilib rag'batlantirishi, tashkilotning samarali ishlashi va rivojlanishi menejerga bog'liqli ekanligi haqida aytilgan. Xsusan madaniyat markazlarini boshqarishda direktor tamonida qanday ishlar olib borilishi, direktorning vazifalari, hodimlar bilan munosabatilari haqida mazkur maqolada so'z boradi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статъе расказқвается о методах управления в сфере культуры и искусства, работе и изменениях в этой сфере за последние годы. Также было сказано, что от руководителя завесит то, лал ведет себя руководитель во время работы, как вести работу, как мотивировать работников организации, эффективную работу и развитие организации.
Как работает под руководством директора по управлению културными центрами в данной статье говоритсия обязенностях и отношениях с сотрудниками.

**SUMMARY.** This article talks about management methods in the field of culture and art, the work and changes in this field in recent years. It was also said that how the leader behaves at work, how to conduct work, how to motivate the employees in the orhanization, effective operation and development of the organization depends on the manager.
This is about what works are carried out under the direction of the director in the management of, cultural senters, the duties of the director, relations with employees, the article says.

# РОЛЬ СФЕРЫ КУЛЬТУРЫ В РЕАЛИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ

**К.Б.Юсупов** - *(PhD), доцента*
*Нукусского филиала Узбекского государственного института искусства и культуры*

**Таянч сўзлар:** маданият маҳкамалари, ёшлар сиёсати, бадиий ижодкорлик, халқ ҳавоскорлар жамоатлари, кино, телевидение, миллий эстрада, мусиқа, хореография.

**Ключевые слова:** учреждения культуры, молодежная политика, художественное творчество, коллективы народной самодеятельности, кино, телевидение, национальная эстрада, музыка, хореография.

**Key words:** cultural institutions, youth policy, artistic creativity, amateur groups, cinema, television, national stage, music, choreography.

## ВВЕДЕНИЕ

На сегодняшний день в нашей стране важное значение имеет молодежная политика и социальная активность молодежи. Принятие молодежной политики имело большое значение в жизни нашего народа, особенно молодежи, стал большой практической программой повышения политической культуры молодежной политической культуры, укрепления нашей независимости, последовательного осуществления демократических процессов.

Реальность жизни показывает, что все мировые знания и опыт, слова, понимания, впечатления, умозаключения - все это возникает, развивается, обогащается, крепнет или, наоборот, устаревает и превращается в прах в результате человеческой деятельности. Сегодня в мире существует такое великое явление, как сознательная жизнь человечества, которая никогда не погрузится во тьму.